

## YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

*Xolmanova Feruza Uralovna*

*Termiz Davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrasi katta  
o'qituvchisi (PhD)*

## HISTORIOGRAPHY OF THE HISTORY OF CONVENIENT AND FOOD INDUSTRY

*Xolmanova Feruza Uralovna*

*Senior lecturer (PhD) of the Department of World History of  
Termez State University*

## ИСТОРИОГРАФИЯ ИСТОРИИ БЫТОВОЙ И ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

*Холманова Феруза Ураловна*

*Старший преподаватель (PhD) кафедры всеобщей истории  
Термезского государственного университета*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ilmiy izlanishlar samaradorligi ham ortib bormoqda. Xususan yengil va oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, monografiyalar va qo'llanmalar shular jumlasidandir.

**Kalit so'zlar:** paxta, Surxondaryo, Xorazm, yengil sanoat, oziq-ovqat, hudud.

**Abstract:** As a result of the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, the effectiveness of scientific research is also increasing. Scientific research works, monographs and manuals dedicated to the study of the history of the light and food industry are among them.

**Keywords:** cotton, Surkhondaryo, Khorezm, light industry, food, region.

**Аннотация:** В результате проводимых в Республике Узбекистан реформ также повышается эффективность научных исследований. Среди них научно-исследовательские работы, монографии и пособия, посвященные изучению истории легкой и пищевой промышленности.

**Ключевые слова:** хлопок, Сурхандарьинская, Хорезмская, легкая промышленность, продукты питания, область

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jahonda aholi sonining muttasil o'sib borishi, globallashuv jarayonlari natijasida jahon xo'jaligi integratsiyasi tobora kuchaymoqda. Mazkur jarayonda aholini ekologik toza, sifatli yengil va oziq-ovqat sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. BMT ning Ming yillik rivojlanish dasturida ham bu masalaga global muammo sifatida qaralmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoatining o'ziga xos muhim xususiyati shundaki, ushbu tarmoq korxonalari doimiy ravishda moddiy-texnikaviy jihatdan sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan uskunalari bilan qayta jihozlanib borishini taqozo etadi. Dunyoning taraqqiy etgan AQSh,

Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy kabi mamlakatlarining yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va sohada to'plangan tajribalarga tayangan holda oziq-ovqat taqchilligi bilan bog'liq global muammolarning yechimini topish masalasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan taraqqiyot strategiyasidagi dasturlar yengil va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, yangi marralarni egallash, zamon bilan hamnafas rivojlanish, xalqimizning manfaatini himoyalashga qaratilgan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev zamonaviy korxonalarni ko'paytirish orqali paxta xom ashyosini qayta ishlash, tayyor mahsulot



e-mail:

[feruzahalmanova@gmail.com](mailto:feruzahalmanova@gmail.com)

<https://orcid.org/0005-0007-1977-562X>

Tel.: +998 91 583 57 97

eksportini kengaytirish zarurligini[1] ta'kidlab o'tgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Respublika iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri sanalgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarixini o'rganish borasida ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri sifatida hududlar kesimida o'rganishga bo'lgan e'tiborning kuchayishidir. Masalan, A.G'.Abdullaevning ilmiy izlanishlari Xorazm viloyatida mazkur tarmoqning iqtisodiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan. Bunda mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizda amalga oshirilgan islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi, oziq-ovqat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari hamda Xorazm viloyati aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi va ushbu sohani rivojlantirishda xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish masalari haqida to'xtalib o'tgan. Tadqiqotchi N.M.Ziyavitdinova Buxoroda oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, sanoat korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini kuchaytirish masalalariga to'xtalib o'tgan. Ayniqsa, Janubiy viloyatlarda yengil va oziq-ovqat sanoati tarixini tadqiq etish borasida muhim ilmiy izlanishlar olib borildi. Sovet hukumati davrida viloyatda sanoat tarmog'i bir tomonlama rivojlangan bo'lib, asosan xom ashyoga birlamchi ishlov berilgani va bu jarayon markaz manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilganligi E.Qobulovning dissertatsiyasida 1946-1960-yillarda mazkur tarmoqda amalga oshirilgan ishlar o'rganilgan bo'lsa, U.K.Xudoykulov tadqiqotida 1970-1980-yillar kesimida tahlil qilingan.

**МУХОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION).** Surxondaryolik tarixchi olimlar tomonidan o'nlab monografiyalarda nashr qilinib, unda yengil va oziq-ovqat sanoati tahliliga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, S.N.Tursunov, E.O.Qobulov va boshqalarning «Surxondaryo tarix ko'zgisida» deb nomlanuvchi kitobining yettinchi bo'limi mustaqillik yillarida yengil va oziq-ovqat sanoati tarmog'ida amalga oshirilgan islohatlar, sanoat sohasida ro'y bergan o'zgarishlar, ishchi xodimlarni

tayyorlash va qayta malakasini oshirish masalalari hamda sanoatni yangi texnologiyalar bilan jihozlash jarayoni va bu boradagi muammolar, ularning sabab va oqibatlariga oid masalalar tahlil etilgan. Shuningdek qo'shma korxonalarining iqtisodiy hayotdagi o'rni tahlil qilingan [2].

Z. Mirzayev va E.Qobilovlarning «Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi» kitobining «Paxta sanoat kompleksining muammolari» nomli to'rtinchi bobida 1970-1980-yillarida sanoatning rivojlanishi, paxtani qayta ishlash sohasi bilan bog'liq paxta tozalash zavodlarining faoliyati, paxta tolasini sotish masalasidagi muammolar, tajriba almashuv va hamkorlikka doir dalillar keltiriladi. Shuningdek mustaqillikning dastlabki yillarida tarmoqda amalga oshirilgan tadbirlar o'z aksini topgan [3].

«Termiz buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar» kitobining mustaqillik davriga bag'ishlangan qismida Termizda sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohasidagi hamkorligi, iqtisodiy o'sish haqida qisqa ma'lumotlar berilgan [4].

J.Mirzayevning «Termiz tarixi» kitobida yengil va oziq-ovqat sanoati haqida, M.Azimovning «Termiz tarixi» monografiyasida Termizning mustaqillik yillaridagi sanoat korxonalariga doir manbalar qisman tahlil etilgan[5].

S.Tursunov va boshqalar tomonidan nashr etilgan «Surxondaryo tarixi» monografiyasining Surxondaryo viloyatining sovet hokimiyati yillariga bag'ishlangan 7-bobida mustaqillik yillarida sanoat korxonalarining qurilishi, qayta ta'mirlanishi, qo'shma korxonalarining barpo etilishi, ishlab chiqarish iste'mol fondlarining natijalari, sanoat mahsulotlarining turlari, sifati, samaradorligi, ishchi texnik xodimlarning ijtimoiy turmush tarziga taalluqli masalalar haqida fikr yuritilgan [6].

S.Tursunov, A.To'xtaev "Jarqo'rg'on"[7], S.Tursunov, T.Turdiev "Denov" [8], S.Tursunov, Q.Rashidov "Boysun" [9] kabi monografiyalarda mustaqillik yillarida Surxondaryo sanoat tarmoqlarida ro'y bergan o'zgarishlar manbalarga asoslangan holda tumanlar kesimida bajarilgan.

**НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Mustaqillikdan keyingi yillarda viloyatda sanoatni xususiy lashtirish, sifat ko'rsatgichlarni takomillashtirish, faqat birlamchi mahsulot ishlab chiqarishdan tayyor eksport salohiyatiga javob

beradigan asbob-uskunalarni jalb etish, yengil sanoat korxonalarini qayta qurishda iqtisodiyotni o'rniga e'tiborni kuchaytirish, trikotaj, bolalar kiyimi, mahalliy matolarini jahon andozalari asosida sifatli tayyorlash, to'qimachilik industriyasini rivojlantirish:

vohaga xos oziq-ovqat sanoati uchun malakaviy mutaxassisilarni jahon andozalari darajasidagi bilim ko'nikmalarini oshirish, sanoatbop biologik, zoologik yangi navlarni yaratish, moslashtirish, yog'-moy sanoatni tubdan isloh etish, vohaga xos quruq mevalarni jahon andozalariga mos holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda ipak qurtidan yiliga ikki marotaba hosil olish hisobida tayyor mahsulotlarni xorijga eksport qilishni rivojlantirish:

viloyatda hududiy sanoat klasterlari, agrologistika tizimi, haridorbop tog' meva, baliq, sut mahsulotlarni aholini kundalik ehtiyojlarini qondira oladigan darajadagi qo'shma korxonalarini iqtisodiyotini kuchaytirishi, sanoat tizimida mahsulotlar tayyorlash jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, soha xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy madaniy turmush tarzini yuksaltirish, viloyat oziq-ovqat sanoatidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga oid tarixiy ma'lumotlar B.Rahimov, F.Yormatovlarning ilmiy tadqiqotlarida tarixiy jihatdan dalillangan. Xorijiy olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari orasida, masalan, Leonid Levitinning "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" asarida O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar o'tkazish strategiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi qiziqarli tarzda bayon etilgan[10]. Amerikalik tadqiqotchi[11] G. Glison asarida Markaziy Osiyo respublikalari qatorida O'zbekistonning ham mustaqillikka erishgandan so'ng, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklari haqida so'z boradi. Yengil sanoatni rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb etish borasidagi muammolar xorijlik olimlar: G. Markovis[12], P.Samuelson[13], S.Bruno[14], A.Keyn, J.Alan[15] ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish masalalari E.Bodi, Yu.Brixsma, Van Xorna ishlarida ma'lum darajada yoritilgan. Shuningdek, yengil sanoat taraqqiyoti yo'nalishlarida MDH olimlaridan M.Dyupov[16], A.Xvorostyanaya[17], N.Balanovskaya; oziq-ovqat sanoati texnologiyalari rivoji masalalarida Ye.Cherepennikova[18] va

N.Leyberovalar[19] o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan.

## **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Yuqorida qayd qilganimizdek, iqtisodiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan yengil va oziq-ovqat sanoatini mustaqillik yillarida erishgan yutuq va natijalarini hamda uning kelajakdagi holatini yangi arxiv hujjatlari va statistik to'plamlarga asoslangan holda kompleks tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 30 aprel-1-may kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi", 2019-yil 2-may, № 90.
2. O'zbekiston hududlari mustaqillik yillarida. – Toshkent: Sharq, 1996. –B.110-123.
3. Berdiyev H. Birinchi odam viloyati. –Toshkent: Nur, 1991, – 79 b.
4. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. –Toshkent: O'qituvchi, 1994, – 111 b.
5. Райзберг Б.А. Основы экономики и предпринимательства. –М.: Просвещения, 1995. – 206 б.
6. Tursunov S.N. Qobilov E.O., Pardayev T.R., Murtazayev Z.M. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: «Sharq», 2001.
7. Mirzayev Z.M. Qobilov E.O. Surxondaryo paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi. –Termiz: 1996. – B. 64-75.
8. Termiz. Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.108.
9. Mirzayev J. Termiz tarixi. Toshkent: Sharq, 2001. B.120.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. O'zbekiston qomuslar bosh tahririyati. –Toshkent. – B.639-641.
11. Tursunov S.N va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: 2004, Sharq, 605-bet.
12. Soliyev A., Abdunazarov H. Yengil va oziq-ovqat sanoatining mintaqaviy muammolari. – Toshkent: Fan, 2007. – B.87-88.
13. Tursunov S., To'xtayev A. Jarqo'rg'on. – Toshkent: Fan, 2008.
14. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. Toshkent: Fan, 2009.
15. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – Toshkent: Akademya, 2011.
16. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
17. Gregori Gleason. The Central Asia States. – Wetview Press. Boulder. Colorado, 1997.
18. G. Markowitz. Efficient Diversification of Investments. – New York. 1997.
19. Samuelson Paul A. Risk und Uncertainty: – Scientia, 1997.